

TURKISTON O‘LKASIDA FARG‘ONA VILOYATINING TASHKIL TOPISHI

I. M. Xaydarov

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrasida professori, tarix fanlari doktori (DSc).*

Noryigitova Noila

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi”
yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

E-mail: izzatillakhon@gmail.com, noryigitovanoila@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Farg‘ona viloyatining tashkil etilishi jarayoni, uning tarixiy shart-sharoitlari, boshqaruv tizimi va ma‘muriy islohotlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda Farg‘ona viloyatining Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shilishi, hududda harbiy-ma‘muriy boshqaruvning joriy etilishi hamda yangi siyosiy tartiblarning shakllanishi yoritib berildi. Shuningdek, Turkiston general-gubernatorligi doirasida olib borilgan islohotlar, ularning mahalliy aholi hayotiga ta‘siri hamda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar tahlil etildi.*

Kalit so‘zlar. *Turkiston general-gubernatorligi, Kaufman, Farg‘ona viloyati, Skobelow, Kalpokovskiy, Po‘latxon, Qo‘qon xonligi.*

Abstract. *This article provides a scholarly analysis of the process of the establishment of the Fergana region by the Russian Empire in the late 19th and early 20th centuries, its historical conditions, administrative system, and reforms. The study highlights the incorporation of the Fergana region into the Russian Empire, the introduction of military-administrative governance in the territory, and the formation of new political orders. It also examines the reforms carried out within the Turkestan Governor-Generalship, their impact on the local population, and the resulting socio-economic changes.*

Keywords: *Turkestan Governor-Generalship, Kaufman, Fergana region, Skobelev, Kolpakovsky, Polatkhan, Kokand Khanate.*

Аннотация. *В данной статье научно проанализирован процесс образования Ферганской области Российской империей в конце XIX – начале XX веков, её исторические предпосылки, система управления и административные реформы. В исследовании освещены вопросы включения Ферганской области в состав Российской империи, внедрения военно-административного управления на территории, а также формирования новых политических порядков. Также рассмотрены реформы, проводимые в рамках Туркестанского генерал-губернаторства, их влияние на местное население и социально-экономические изменения.*

Ключевые слова: *Туркестанское генерал-губернаторство, Кауфман, Ферганская область, Скобелев, Колпаковский, Полатхан, Кокандское ханство.*

Kirish. Rossiya davlati Buxoro va Xiva xonliklariga qarshi bosqinchilik urushi olib borayotgan yillarda Qo‘qon xonligi o‘z boshidan chuqur siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy bo‘ronni kechirayotgan edi. Bu vaqtga kelib xonlikning hozirgi Qirg‘iziston, Qozog‘iston hududlaridagi Oqmachit, Turkiston, Sayram, Chimkent, Avliyoota, Pishpak, Almati kabi viloyatlari, ya‘ni saltanatning deyarli yarmi Rossiya tomonidan bosib olingan edi, Qo‘qon xonligining hududi asosan Farg‘ona vodiysidan iborat bo‘lib qolgandi.

Natijalar. Qo‘qon xonligining Turkiston, Chimkent, Toshkent va boshqa shaharlarini bosib olgan chor istilochilari bu hududlarni Rossiya tasarrufiga kiritib oldilar va rasmiy “qonunlashtirib” ham qo‘ydilar. 1868-yil 13-fevral kuni Turkiston general-gubernatorligi bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasida shartnoma imzolandi. Bu kelishuv, o‘z mohiyati bilan, Qo‘qon xonligi uchun nihoyatda og‘ir, sharmandali shartnoma edi. Mazkur shartnomaga ko‘ra, rus savdogarlari Qo‘qon xonligidagi barcha shaharlar va qishloqlarda istagan karvonsaroyga ega bo‘lish va savdo agentliklarini tuzish huquqiga ega bo‘ldilar. Qo‘qon xonligi savdogarlari esa faqat Turkiston general-gubernatorligi hududidagi shahar va qishloqlardagina, ya‘ni o‘z yurtidagina shunday imtiyozga ega bo‘ldilar, xolos. Bu hol mahalliy savdogarlar tabaqasi o‘rtasida kuchli norozilik uyg‘otdi. Rossiya hukumati tazyiqi ostida, Rossiyaning manfaatlarini ko‘zlab tuzilgan bu shartnomadan xonlikning butun xalqi qoniqmasi. O‘sha paytda xalq orasida xon va uning gumashtalari Qo‘qon xonligini chor Rossiyasiga sotmoqchi, degan fikrlar ham keng tarqalgan edi.

Rossiya Qo‘qon xonligini butunlay o‘z tarkibiga kiritib olish uchun astoydil harakat boshlab yubordi. Xususan, Qo‘qon xonligini josuslik yo‘li bilan o‘rganishni atroflicha kuchaytirdi. Polkovnik Shaufus Qo‘qonga ham elchi, ham josus bo‘lib tayinlandi. U o‘zi to‘plagan ma‘lumotlari asosida, Xudoyorxon rus mustamlakachilari tarafida ekanini, biroq unga qarshi turgan ikkinchi guruh mavjudligi va bu guruh Sherali dodxoh bilan Abdurahmon Oftobachi tomonidan boshqarilayotganini rus ma‘muriyatiga yetkazdi.⁷³

Bu davrda xonlik chegarasi ancha qisqarib ketgan, xazinaga tushadigan daromad kamaygan edi. Xazinani to‘ldirish uchun esa og‘ir va xilma-xil soliq va majburiyatlar joriy etiladi.

Bu o‘rinda rus tarixchilaridan N. Raevskiyning e‘tirofini keltirish maqsadga muvofiqdir. U bunday degan: “O‘lkani ruslar egallagandan keyin aholining ahvoli kundan-kunga og‘irlashib bordi. Aholidan biz ko‘p narsani talab etmoqdamiz. Ulardan soliq yig‘ishda esa

⁷³ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). – T: Sharq, 2000. – B. 368.

haddan ziyod avjga chiqayotirmiz. Lekin xalqqa nima berdik? Toshkentda va turli komissiyalarda chiroyli aytilgan iboralardan tashqari, xalq xo‘jaligi uchun biz hech narsa qilmadik”.⁷⁴

Qo‘qon xoni Xudoyorxon mustamlakachilarga o‘zini yaxshi ko‘rsatishga zo‘r berardi. Shu bois, u rus ma‘murlariga o‘z sadoqatini va har qanday xizmatga tayyorligini izhor etuvchi bir qancha xatlar yozib turdi. Bu xusud Xudoyorxonning 1869-yil 18-aprelda Turkiston general-gubernatoriga yo‘llagan bir maktubi diqqatga loyiqdir.

“Sizlar tomonga qochib o‘tgan sarboz Tursunqulov bilan, – deb yozgan edi u, – yuborgan samimiy xatingizni oldim. Sizga nisbatan bo‘lgan do‘stlik tufayli mazkur sarbozni kechirib, sarpo kiygizdik va xursand qildik. Chunki u begona davlatga emas, balki Qo‘qon bilan bir davlat – Rossiyaga, ya‘ni bir mamlakatga qochgan”.

Xudoyorxon o‘z vaqtida yurti va xalqiga xoinlik qilib, munofiqlik, pastkashlik, diyonatsizlik bilan dushman tarafiga o‘tgan kishini afv etganida Rossiyaga nisbatan sadoqatini oshkora namoyish qilmoqchi bo‘lgan, albatta. Uning “bir davlat” haqidagi gaplari ruslarga tiz bukkan davlatining itoatkor xizmatkor bo‘lishga hozirlik e‘tirofi edi.

Bu kabi subutsizlik, taslimchilik ruhidagi xatlari evaziga Xudoyorxon vaqtincha Turkiston general-gubernatorligi ma‘muriyatining tahsiniga sazovor ham bo‘lgan edi. Muarrix Is‘hoqxon Junaydullox o‘ja Ibrat Xudoyorxonning salbiy fazilatlarini umumlashtirib, “Rusiyadan xotirjam bo‘lib, vaqtini o‘yin-kulgi bilan o‘tkazib, qush solmoq va ko‘ksaburi chopmoq yo‘llarida bo‘lib, ulamo va fuzalo nasihatlariga amal qilmay, jabr-u zulm tarafiga o‘tub turganida, raiyatu xalq (undan) yuz o‘girdi”, – deb yozgan edi.⁷⁵

Turkiston general-gubernatori Konstantin Petrovich Kaufmanga 1876-yil 16-yanvarda imperiya harbiy vaziri Dmitriy Milyutindan o‘ta maxfiy xat keladi. Unda mana bular yozilgan edi:

“Qimmatli saodatliylari Konstantin Petrovich! Siz saodatliylari bizga yo‘llagan, Qo‘qon xonligiga nisbatan bizning kelajakdagi xatti-harakatimiz bayon etilgan taqdimnoma mazmunini men davlatpanoh imperatorga yetkazdim. Oliy hazratlari Siz keltirgan dalillarni, ya‘ni Sirdaryo viloyati chegarasida qat‘iy tadbirlar bilan tinchlikni va osoyishtalik o‘rnatish va bizning kuchimizni O‘rta Osiyoda mavqeini saqlab qolish uchun Qo‘qon xonligining qolgan qismini ham Siz hazrati oliylari qulay va lozim topganingizda egallay olishingizga ruxsat beradilar”.

⁷⁴ Usmonov Q., Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 466.

⁷⁵ Ibrat. Farg‘ona tarixi. – Toshkent: Meros, 1991.

Shu tariqa, imperator Qo‘qon xonligini to‘la ravishda o‘z tarkibiga qo‘shib olishga fatvo berdi. Kaufman bu ko‘rsatmani sir saqladi va xonlikni uzil-kesil bosib olishning osonroq rejasi haqida bosh qotira boshladi.

Ayni shu vaqtda general Mixail Skobelev xonlikni tugatishga qaratilgan “Ikki suv orasi operatsiyasi” rejasini ishlab chiqib, uni amalga oshirish uchun Turkiston general-gubernatori vazifasini vaqtincha bajarib turgan Gerasim Kolpakovskiydan ruxsat oladi.

Bosqinchilarning bu rejasidan ozodlik kurashchilari rahbarlari ham xabar topib, dushmanga qarshi zarba berish choralarini ko‘ra boshlaydilar. Xonlikda sodir bo‘lgan keyingi voqealar paytida general-gubernator Konstantin Petrovich Kaufman Peterburgda ekanligi uchun uning o‘rnida vaqtincha general Gerasim Kolpakovskiy turgan edi.

1876-yil 5-fevralda bu qo‘mondon Kaufmanning Qo‘qon xonligini Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritish va Qo‘qon shahriga harbiy yurish qilish haqidagi telegrammasini oladi. Shunga binoan Xo‘jand, Andijon va Toshkentdan harbiy qismlar Namanganga jo‘natiladi. General Mixail Skobelev qo‘shin bilan Namangandan chiqib, 7-fevralda Qo‘qon shahriga yaqinlashib, Nasriddinxonni o‘z huzuriga chaqirtiradi.⁷⁶

So‘ngra 8-fevralda shaharga bostirib kirib, xon o‘rdasini egallaydi. Dushmanga qarshi urush tarafdorlari qamaladi va 29 to‘p qo‘lga olinadi. Ertasigayoq Nasriddinxon va uning hamrohlari Toshkentga yuboriladi. Bu voqeadan ko‘p o‘tmay boshqa harbiy qismlar ham Farg‘onaga keladi.

1876-yil 15-fevralda general Kolpakovskiy Qo‘qonga keladi. Bu to‘g‘rida general-gubernatorlikning rasmiy gazetasi shunday yozgan edi:

“Sobiq Qo‘qon xoni Said Nasriddin va Abdurahmon Oftobachi Toshkentga jo‘natilganidan keyin 14-fevralda general-leytenant Kolpakovskiy imperator oliy hazratning ko‘rsatmasiga binoan Qo‘qonni egallash va uni rus tobeligiga o‘tkazish hamda Farg‘ona viloyatini tashkil etish uchun Xo‘janddan Qo‘qonga jo‘nadi”. Sobiq xonlik aholisi general Gerasim Kolpakovskiy xursandchilik bilan qarshi oldi. Kolpakovskiy barcha aholiga imperatorning xonlik xalqlarini Rossiya tobeligiga va umum bir oilaga olish haqidagi marhamatini hamda bundan buyon ular teng huquqlarga ega bo‘lishlarini e‘lon qildi. U xalqni o‘z mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishga da‘vat etib, rus hukumati tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashini bildirdi. U savdoda, dehqonchilikda va hunarmandchilikda muvaffaqiyatlar tilab, teng huquq va adolat bo‘lishini va‘da qildi hamda podshoh haqida duolar o‘qishni so‘radi.

General Kolpakovskiy 15-fevral, soat ikki yarimda Qo‘qon devori yoniga kelgan edi. Shu vaqtda general Mixail Skobelev barcha harbiy qo‘shinlar bilan uni qarshi olgan. Kolpakovskiy salomlashib, qahramonlik uchun rus askarlariga minnatdorlik bildirganidan

⁷⁶ Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998. – 480 b.

so‘ng savdo ahli, hunarmand va oqsoqollardan iborat shahar vakillariga shahar va, umuman, Farg‘ona vodiysi rus hukumati bo‘ysundirilganligini bildirdi.

Shundan keyin to‘p ovozlari ostida Kolpakovskiy ot ustida, shtab a‘zolari kuzatuvda shaharga kirib, saroy maydonida qo‘shin paradini o‘tkazdi. So‘ngra qo‘shin Kolpakovskiy ortidan xon saroyiga kirdi.

Gazeta sahifasiga bitilgan mazkur satrlardagi “xalqning xursandchiligi” haqidagi so‘zlar mutlaqo asossizdir, albatta. Bu yuqorida sharhlangan janglar yaqqol ko‘rsatib turibdi. Bundan tashqari, Qo‘qonga minglab soldatlarning kiritilishi ham xalqning noroziligi tufayli edi. Umumlashtirib aytganda, xonlik xalqlari mustaqillik va ozodlik uchun qo‘lidan kelganicha jonlarini fido etdilar. Ammo har jihatdan yaxshi qurollangan bosqinchilar g‘olib kelib, vodiyni vayronaga aylantirganlari holda Qo‘qon xonligini tugatdilar.

Yangi tashkil topgan Farg‘ona viloyatiga vodiydagi shaharlar, qishloqlar va ovullar kiritilgan edi. Qo‘li qonga belangan general Mixail Skobelev viloyatning harbiy gubernatori lavozimiga tayinlandi.

1892-yilga kelib Farg‘onada ham vabo keng tarqaladi. O‘lka bo‘yicha hisoblanganda, o‘lganlar soni 11 879 kishiga boradi. Bu o‘z davri uchun katta fojia edi. Agar chor hukumati yetarli mablag‘ ajratib, tegishli choralarni izchil ravishda ko‘rganida, bunday katta yo‘qotish bo‘lmas edi.

Qo‘zg‘olonning aks-sadosi butun o‘lkaga, xususan Farg‘ona vodiysiga ham tarqalib, vaziyat keskinlashdi. Shu bois faqat Toshkentda emas, balki Farg‘ona viloyatida ham harbiy holat joriy etilib, nazorat va ta‘qib avjiga chiqdi. Paxta-chilikning rivojlanishi, o‘lkaning Rossiyaning xomashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylanishi ayniqsa Farg‘ona viloyatida xalqni har jihatdan og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Rus hukumati davrida oliy va o‘rta hokimiyat lavozimlaridan, boylıklardan mahrum etilgan hamda o‘z vataniga sodiq kishilar chet hukmronligiga qarshi kurash tarafdorlari sifatida maydonga chiqdilar. Farg‘ona viloyatining harbiy gubernatori Chaykovskiy vodiydagi vaziyatni shunday ta‘riflagan:

“Bo‘ysundirilganiga qadar Farg‘ona mustaqil davlat hisoblanib, o‘zining tarixi, hukmron sinfi va boshqaruv tuzumiga ega edi. Ularning yo‘qolganiga hali chorak asr, yangi sharoitga moslashish uchun esa bir kishining umri ham yetganicha yo‘q. Ilgari hukmronlik qilgan nufuzli tabaqalarning oddiy kishilarga aylanish jarayoni juda qiyin va alamli kechmoqda. Shuning uchun tasodifiy hodisalarning yuzaga kelishini nazarda tutgan holda, tub aholini qattiq nazorat ostida tutib turish hali uzoq davom etadi. Ayniqsa, musulmon ruhoniylarini va musulmon o‘quv yurtlari vakillarini alohida nazorat ostida saqlab turish zarur. Chunki ular qonuniy tashkilotlardan chetda o‘z holiga tashlab qo‘yilganligi uchun doimiy nazorat qilish imkoni yo‘q. Yangi tartib-qoidalar orqali ularning faqat jamiyatdagi mavqeiga emas, balki

vaqf yerlaridan olinadigan daromadlarining qisqartirilishi tufayli iqtisodiy manfaatlariga ham putur yetkazildi.”

Xulosa. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Farg‘ona viloyatining tashkil etilishi mintaqaning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu davrda yangi boshqaruv tizimi joriy etilib, avvalgi an’anaviy tuzilmalar asta-sekin o‘zgardi va jamiyat hayotiga yangicha tartiblar kirib keldi. Natijada o‘lkaning ichki tuzilishi hamda aholining turmush tarzi yangi sharoitlarga moslashish jarayoniga duch keldi. Ushbu o‘zgarishlar Farg‘ona viloyatining keyingi tarixiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Bahodir Eshov, “O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi”. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2012.
3. Shamsutdinov R. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari); –Toshkent: Sharq, 2010.
4. Ibrat. Farg‘ona tarixi. – Toshkent: Meros, 1991.
5. Marg‘iloniy Muhammad Aziz. Tarixi Aziziy (Farg‘ona chor mustamlakasi davrida). Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
6. Usmonov Q., Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.
7. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998.